



MAMLAKATIMIZ TINCHLIGI, XALQIMIZ FAROVONLIGI UCHUN QULAY INVESTITSIYA MUHITI, YANGI KORXONALAR VA KO‘PLAB ISH O‘RINLARI YARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-oktabr, Qashqadaryo viloyatiga tashrifining ikkinchi kuni Qarshi shahridagi “Qavali” kichik sanoat zonasida joylashgan bir qator korxonalar bilan tanishdi.



Sanoat zonasining yer maydoni olti gektar bo‘lib, muhandislik infratuzilmasi yaxshi tashkil etilgan, transportga juda qulay. Shu bois, ishlab chiqarish jadal rivojlanmoqda.

Hozir bu yerda qurilish materiallari, mebelsozlik, to‘qimachilik, farmatsevtika va charm sanoati yo‘nalishidagi 11 ta loyiha joylashtirilgan. Shundan to‘rttasi ishga tushirilgan bo‘lib, import o‘rini bosuvchi mahsulotlar tayyorlanmoqda.

Davlatimiz rahbari ulardagi ish jarayoni, mahsulotlarni ko‘zdan kechirdi.

“Pegas” korxonasida temirni qayta ishlash, lak-bo‘yoq, eshiklar hamda tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu loyihaning qiymati 13 milliard so‘mdan ziyod

bo‘lib, bu yerda 150 ta yangi ish o‘mi yaratildi. Korxona mahsulotlariga ichki bozorda talab yuqori. Keyingi bosqichda qurilish sohasida muhim sanalgan boshqa xomashyolar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi. Natijada yana shuncha yangi ish o‘mi yaratiladi.

“1-son kompleks loyiha qurilish-montaj” xususiy korxonasi ham qurilish materiallariga ixtisoslashgan. Umumiy qiymati 18,5 milliard so‘m bo‘lgan mazkur loyiha yiliga qariyb 2 million kvadrat metr profnastil va 250 ming kvadrat metr sendvich panellar ishlab chiqarish quvvatiga ega. Korxonada hozirda 45 kishi mehnat qilmoqda. Mahsulot hajmi ortishi evaziga kelgusida ish o‘rinlari soni ko‘payishi mo‘ljallanmoqda.

“Karshi W and D Factory” korxonasida 50 turdagi eshiklar, yumshoq va qattiq mebellar ishlab chiqariladi. Bu loyihaga 8,5 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirilib, Germaniya, Turkiya va Xitoydan zamonaviy texnologiyalar keltirib o‘rnatilgan. Korxonada 26 ta yangi ish o‘rni yaratildi.

Sanoat zonasida yana yettita investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Ular ishga tushsa, yana 725 nafar aholi bandligi ta‘minlanadi.

Prezidentimiz shu yerda Xitoy davlatidan keltirilgan zamonaviy avtobus va mikroavtobuslarni ko‘zdan kechirdi. Tadbirkor Narzullo Namozovning aytishicha, 60 o‘rinli avtobuslarga talab yuqori. Qashqadaryoga

undan 30 ta olib kelingan, jami 100 taga yetkazish rejalashtirilgan. Kelgusida bunday qulay avtobuslar Qarshi — Shahrisabz va Qarshi — Kitob yo‘nalishlarida qatnay boshlaydi.

Davlatimiz rahbari hunarmand-tadbirkor Dilorom Quvvatova bilan ham muloqot qildi. Uzoq yillar xorijda ishlagan bu ayol tadbirkorlarga yaratilayotgan imkoniyatlarni eshitib, yurtimizga qaytib kelgan. Bugun uning boshchiligidagi tikilayotgan ko‘rpa-yostiq, to‘n va boshqa mahsulotlar vohada xaridorgir.

D.Quvvatova tadbirkorlik uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan mamnunligini, kelgusida ish o‘rinlarini 300 taga yetkazishni maqsad qilganini aytdi.

Shu yerda Qashqadaryo viloyatida 2024-yilga mo‘ljallangan investitsiya loyihalari taqdimoti o‘tkazildi. Xususan, kelgusi yil to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoya va kreditlar evaziga jami 4 milliard dollarlik 36 ta yirik loyiha, 656 million dollarlik 114 ta hududiy loyiha shakllantirilgan. Ular neft-gaz, kimyo, to‘qimachilik, charm-poyabzal va qurilish sanoati, turizm, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida bo‘lib, asosan, mahalliy lashtirish va qayta ishlashdagi bo‘shliqlarni to‘ldirishga qaratilgan.

Shundan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazildi.

Dunyoda ziddiyatlar tobora kuchayib bo-

rayotgani, befarqlik, o‘zibo‘larchilik kayfiyati bilan rivojlanib bo‘lmasligi ta‘kidlandi.

— Mamlakatimiz tinchligi, xalqimiz farovonligi va kelajagi uchun yangi korxonalar, yangi bozorlar, investitsiya, ish o‘rinlari, katta-katta tushumlar kerak. Jahon bozorida tebranihlar, hamkor davlatlardagi savdo cheklovlar davom etaversa, mahsulotlarni qayerga va qanday sotish kerak? Buning uchun qaysi korxonaga qanday ko‘mak berish zarur, — deya savollar qo‘ydi Shavkat Mirziyoyev.

Shu nuqtayi nazardan, yig‘ilishda asosiy e‘tibor sanoat, turizm, qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratildi.

[Davomi 2-betda](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

F A R M O N I

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Mamlakatimiz ichki ishlar organlaridagi ko‘p yillik samarali mehnati, yurtimizda jamoat xavfsizligi, xalqimiz osoyishtaligini ta‘minlash, tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga qo‘shgan katta hisssasi, jinoyatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlarini himoya qilish yo‘lidagi ibratli faoliyati, sharafli burchini bajarishda mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatgani, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash borasidagi alohida xizmatlari uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mardlik” ordeni bilan

Isamov Abdulxamid Mirzayevich — Toshkent shahar Yashnobod tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi profilaktika katta inspektori

“Do‘stlik” ordeni bilan

Arzuyev Jambil Jumabayevich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qo‘ng‘iro‘t tumani ichki ishlar bo‘limi 1-ichki ishlar bo‘linmasi boshlig‘i

Jumayeva Alyona Shuxratovna — Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi ekspert-kriminalistika markazi bosh eksperti

“Jasorat” medali bilan

Asqarov Ulug‘bek Umaraliyevich — Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi safdor xodimi

Axmedov Farruxjon Bayonovich — Samarqand viloyati Urgut tumani ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari

[Davomi 2-betda](#)



TARAQQIYOT YO‘LI



IQTISODIYOTNING

HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI, FAROVONLIKNING BOSH OMILI

O‘zbekistonda Turkiy davlatlar tashkilotiga a‘zo davlatlar inson resurslarini rivojlantirishga mas‘ul idoralar rahbarlarining II yig‘ilishi tashkil etildi. Unda tashkilotga a‘zo davlatlar — O‘zbekiston, Ozarbayjon, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘izistonning inson resurslarini rivojlantirishga mas‘ul idoralari rahbarlari, davlat boshqaruvi tizimiga kadrlar tayyorlash yo‘nalishida faoliyat yuritayotgan akademik muassasalar rahbarlari va mas‘ul xodimlari, mamlakatimiz vazirlik va idoralari, hokimliklarning kadrlar bilan ishlash bo‘linmalari rahbarlari, xorijiy va mahalliy jurnalistlar ishtirok etdi.

[Davomi 3-betda](#)



NUQTAYI NAZAR

ELEKTR ENERGIYASI VA IJTIMOY ME‘YOR

Xalqaro energetika agentligi hisoblariga ko‘ra, O‘zbekiston yoqilg‘i energetikaga eng ko‘p subsidiya ajratadigan 25 davlatdan biri, deb topildi. Aniqliq aytganda, mamlakatimiz ushbu ro‘yxatning 12-o‘rnidan joy oldi.

Agentlik hisobotida qayd etilishicha, 2022-yilda O‘zbekiston davlat yoqilg‘i energetikasini subsidiyalash uchun 13 milliard dollar yo‘naltirgan. Bu mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 19 foizini tashkil etgani holda, turli manba va vositalar

orqali gazni subsidiyalashga 9 milliard dollar, elektr yo‘nalishiga 2 milliard dollar, neftni subsidiyalashga esa 1 milliard dollar yo‘naltirgan.

[Davomi 4-betda](#)



HAMKORLIKKA — 30 YIL

O‘ZBEKISTON — UNESCO: MA’RIFIY DUNYO VA MADANIY YUKSALISH SARI DADIL INTILISHLAR SARHISOBI

Global dunyoda xavfsizlik va tinchlikni ta‘minlash, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash dolzarb ahamiyatga ega.

Jahon mamlakatlari va xalqlarining yuksak insonparvarlik g‘oyalarini asrash, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida birlashtirish tobora dolzarblashib bormoqda. Xalqaro tinchlikni ta‘minlashda ta‘lim, ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish muhim.

Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta‘lim, fan va madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti UNESCOning alohida o‘rni bor. Uning asosiy maqsadi ta‘lim, fan, madaniyat, kommunikatsiyalar, turizm sohalaridagi hamkorlikni rivojlantirish orqali tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlashga ko‘maklashishdir.

Tashkilot Nizomida qayd etilganidek, “Urush haqidagi g‘oyalar kishilar ongida

paydo bo‘ladi, shuning uchun insonlar ongiga tinchlikni himoya qilish g‘oyasini singdirish kerak”. Olimlar, tinchlik va barqaror rivojlanish sohasi bo‘yicha mutaxassislar UNESCOga nisbatan “BMTning aql laboratoriyasi” iborasini ishlatadi. Javoharlar’ Neru UNESCOga nisbatan “insoniyat vijdoni” degan ta’rifni qo‘llagan ham bejiz emas.

[Davomi 5-betda](#)

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining
F A R M O N IICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARI
KUNI MUNOSABATI BILAN BIR GURUH
XODIMLARNI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

Niyozov Bekzod Xoliqovich — Toshkent viloyati Chirchiq shahar ichki ishlar boshqarmasi katta tezkor vakili

Raximov To‘lqinjon Farxadovich — Toshkent shahar Chilonzor tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi katta tezkor vakili

Suvanov Jamshid Eshpulatovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni jiro etish koloniyasi boshlig‘i

“Sodiq xizmatlari uchun”
medali bilan

Asadov Azizbek Karomatovich — Buxoro viloyati Olot tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Asanov Sabirdjan Jakayevich — Toshkent viloyati Ichki ishlar bosh boshqarmasi patrul-post xizmati otryadi safdor xodimi

Bahromov Bektemir Raxmonovich — Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Qurbonov Farxodjon Raximovich — Farg‘ona viloyati Ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi tergov boshqarmasi o‘ta muhim ishlar bo‘yicha tergovchisi

Norqo‘ziyeva Shaxlo Primqulovna — Sirdaryo viloyati Sirdaryo tumani ichki ishlar boshqarmasi probatsiya bo‘linmasi katta inspektori

Sultanov Anvar Abidxodjayevich — Toshkent viloyati O‘rta Chirchiq tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i

Raximov G‘ulombek Babaxanovich — Xorazm viloyati Ichki ishlar boshqarmasi maxsus qabulxona katta nazoratchisi

O‘zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Toshkent shahri,
2023-yil 25-oktabr

Shermuxamedov Abdumajid Mavlyanovich — Toshkent shahar Yunusobod tumani bo‘yicha Ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i

Yusupov Abdullo Abduraxmonovich — Surxondaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

“Shuhrat” medali bilan

Davranov G‘olibjon Isomidinovich — Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Djabbarov Farxod Axmadovich — Jizzax viloyati Ichki ishlar boshqarmasi patrul-post xizmati batalyoni safdor xodimi

Ishpulatov Abbos Nurmatamatovich — Samarqand viloyati Pastdarg‘om tumani ichki ishlar bo‘limi 2-ichki ishlar bo‘linmasi boshlig‘i

Miraxmedov Abror Onarboyevich — Namanagan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi yo‘l-patrul xizmati inspektori

Mo‘minov Bo‘riqul Yodgorovich — Qashqadaryo viloyati Koson tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Palimbetov Baxtibay Jangabayevich — Qoraqalpog‘iston Respublikasi Chimboy tumani ichki ishlar bo‘limi profilaktika katta inspektori

Ryumin Aleksey Aleksandrovich — O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Ekspert-kriminalistika bosh markazi boshlig‘ining o‘rinbosari

Tulanov Abdumuxtor Ruzimatovich — Andijon viloyati Marhamat tumani ichki ishlar bo‘limi boshlig‘ining o‘rinbosari

SH. MIRZIYOYEV



GOHLIKKA DA‘VAT

FOJIALAR SABABCHISI BO‘LIB QOLMAYLIK!
YOXUD YO‘L-TRANSPORT HODISALARINING OLDINI
OLISHGA QANDAY ERISHAMIZ?

Prezident Shaykat Mirziyoyev o‘tgan haftadagi videoselektor yig‘ilishida yo‘llarimizdagi harakat xavfsizligi bilan bog‘liq vaziyat ancha aynanchi ahvolda ekaniga alohida e‘tibor qaratdi. Yo‘l-transport hodisalari oqibatida o‘lim va jarohatlanish holatlari ko‘pligi, tegishli rahbarlar bunga loqayd bo‘lib o‘tirganini jiddiy tanqid qildi.

Har yili yuzlab odamlar aynan yo‘llardagi baxtsiz hodisalar oqibatida vafot etayotgani, ular orasida bolalar ham borligi barchamizning qalbmizni larzaga soldi. Buning uchun tegishli vazirlik va idoralar rahbarlarining qoniqarsiz faoliyatiga esa deputatlar befarqligini afsus bilan qayd etildi.

Prezidentimiz misol sifatida Pekin va Moskvadek yirik shaharlarda tirbandlik deyarli kuzatilmasligini tilga oldi, bizda ham shunga intilish shartligini ko‘rsatib o‘tdi.

Transport vaziri va boshqa mutasaddilarga jamoat transportini rivojlantirish, svetoforlar va yo‘l chiziqlari o‘rnatish, tirbandlikning oldini olish, poytaxt ko‘chalari va hududlardagi yo‘llarni tartibga solish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rish topshirildi. 2024-yil bu borada jiddiy o‘zgarishlar yili bo‘lishini ta‘minlash vazifasi qo‘yildi.

Davlatimiz rahbarining jonkuyarlik bilan aytgan bu gaplaridan qattiq ta‘sirlandik va shu bahona anchadan buyon o‘ylab kelayotgan mulohazalarimiz bilan o‘rtoqlashishga jazm etdik.

Bugun yo‘l-transport hodisalari oqibatlari haqida uzoq va juda qayg‘uli suhbatlashish mumkin. Chunki ijtimoiy tarmoqlarga nazar solsak, yo‘llarda har kuni kamida ikkita-uchta yirik yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgani, unda odamlar vafot etgani haqida o‘qiymiz. Aslida, ularning soni ancha ko‘p. Biz faqat ijtimoiy tarmoqlarda e‘lon qilinganlaridan xabar topamiz, xolos.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, har yili dunyo bo‘yicha 2 milliondan ortiq inson avtohalokat qurboniga aylanmoqda. YTH natijasida turli tan jarohatlari olib, mayib-majruh bo‘lib qolganlar soni esa 20 milliondan ko‘proq. Bular aslida ancha qo‘rqinchli raqamlar.

YTHlarning oldini olish, sonini kamaytirish bo‘yicha dunyoda ta‘sirchan chora-tadbirlar amalga oshirib kelinadi, yuzlab qonunlar qabul qilinadi. Biroq erishilgan natijalar haminqadar. Yo‘l harakati bilan bog‘liq ko‘ngilsizliklar kamayish

o‘rniga yil sayin ortib bormoqda. Hatto eng sifatli yo‘llarga ega mamlakatlar ham ayni masalada salbiy ko‘rsatkichlarga ega. Ushbu ma‘lumotlarni BMTning yillik hisobotlarida ham ko‘rish mumkin.

Xo‘sh, O‘zbekistonda bunday dilni xira qiluvchi raqamlar qanchani tashkil etadi? Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda har yili YTH oqibatida 10 mingga yaqin inson turli darajada tan jarohati oladi, bevaqt vafot etganlar ham ko‘p. Achinarlisi, ularning asosiy qismi voyaga yetmagan bolalaridir.

Prezidentimiz 2022-yil yanvarda o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida koronavirusdan ko‘ra, YTH tufayli halok bo‘layotgan fuqarolar soni ko‘pligini ta‘kidlab, ushbu ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olish hamda bartaraf etish bo‘yicha aniq ko‘rsatma va topshiriqlar bergan edi. Ammo oradan shuncha vaqt o‘tibdi hamki, bu aynanchi manzara qariyb o‘zgarmadi, balki yomonlashib borayotgani yana bir bor davlatimiz rahbari e‘tiboridan chetda qolmadi.

To‘g‘ri, o‘tgan davrda YTHlar sonini kamaytirishga e‘tibor bir qadar kuchaytirildi. Ko‘ngilsiz hodisalarning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Qayd etish joizki, fojiali ko‘rsatkichlar sohada qilinishi kerak bo‘lgan ishlar hali juda ko‘pligini anglatadi.

Keling, endi yo‘l-transport hodisalarining sodir bo‘lish sabablari, ularning oldini olish va bartaraf etish choralari, shuningdek, amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muhim tadbirlar haqida so‘z yuritsak.

Yo‘l befarqlik va rioyasizlikni
kechirmaydi

Aslida, yo‘l-transport hodisalarini keltirib chiqaruvchi yuzlab sabablar mavjud. Biz esa ularning asosiylari haqida to‘xtalib o‘tami.

Shubhasiz, YTHni hech bir haydovchi qasddan sodir etmaydi. Bunday hodisalarning asosiy qismiga haydovchilarning ehtiyotsizligi sabab bo‘ladi.

So‘rovnomalarga ko‘ra, bugungi kunda haydovchilarning asosiy qismi avtomobilni boshqarish hamda yo‘lda harakatlanish paytida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar haqida to‘liq tushunchaga ega emas yoki bu qoidalariga e‘tiborsiz va mensimay qaraydi.

Buning sababi esa haydovchilikka o‘qitish kurslari hamda oliy o‘quv yurtlarida bu borada yetarli darajada bilim berilmayotganida bo‘lishi mumkin.

Avtotransportni boshqarish uchun faqatgina yo‘l qoidalarini hamda transport vositasini boshqarishni bilishning o‘zi kifoya emas. Haydovchilar uchun yo‘lda harakatlanish paytida kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar haqida to‘liq ma‘lumotga ega bo‘lish ham suv va havodek zarur.

Bugungi kunda haydovchilikka o‘qitish kurslari soni oshishi ularning sifatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatayotganini ham qayd etish joiz.



“Yo‘l-transport hodisalari sodir bo‘lishida yo‘l nosozligi, xavfsizlik talablariga javob bermasligi, xavfli burilishlarda ko‘rinishning yomonligi, qarama-qarshi yo‘nalishlar o‘rtasi to‘silmagani, ikkinchi darajali yo‘llarning asosiy yo‘llarga qo‘shilish qismlarida xavfsizlik to‘siqlari yo‘qligi va boshqa kamchiliklar asosiy sabablardan.

Siyosat

MAMLAKATIMIZ TINCHLIGI, XALQIMIZ FAROVONLIGI UCHUN
QULAY INVESTITSIYA MUHITI, YANGI KORKONALAR VA
KO‘PLAB ISH O‘RINLARI YARATILADI

Masalan, Dehqonobod, Kitob va Qarshi tumanlaridagi sanoat zonalarida 100 gektar yer bo‘sh turibdi. Tadbirkorlar ularga 300 million dollar investitsiya kiritib, 3 ming 500 ta ish o‘rni yaratish tashabbusi bilan chiqqan. Shuningdek, qo‘sh, sut va meva-sabzavotni qayta ishlash bo‘yicha 50 million dollarlik loyihalarni ishga tushirish imkoniyati bor.

Davlat rahbari Qashqadaryo iqtisodiyoti faqatgina yirik korxonalarga qarab qolmasligi kerakligini aytdi. Viloyatda iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishda o‘shir sur‘atlari respublika ko‘rsatkichidan 3 barobar kam. Ayniqsa, kichik biznesning sanoatdagi ulushi eng oxirgi o‘rinlarda.

Masalan, Qashqadaryoda yiliga 150 ming tonna polietilen granulasi ishlab chiqarilsada, uning atigi 4 foizi viloyatning o‘zida qayta ishlanadi. Qamashida sement, gips va marmar, Shahrisabz tumanida grafit, Yakkabog‘da kvarts qumi, Chiroqchida marganes, Kitobda dolomit va chinni konlari negizida ko‘p mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin.

Viloyatda yilning to‘rt mavsumida ham turistlarni jalb qilish salohiyati bor. Lekin bu hozir Shahrisabz shahri va tog‘li tumanlar bilan chegaralangan. Yil boshidan beri Qashqadaryoga 180 ming nafar xorijiy sayyoh kelgani holda, qo‘shni Samarqand va Buxoroga 3,5 million kelgan.

Davlatimiz rahbari qulay infratuzilma yaratib, turistlarni ko‘paytirish yo‘llarini ko‘rsatib o‘tdi.

Xususan, germaniyalik hamkorlar bilan Shahrisabz tumanidagi 3 ta turizm mahallasi master-rejasi tayyorlangan. Bunda 450 million dollar qo‘shimcha investitsiya va yiliga 1 million sayyoh jalb etadigan infratuzilma yaratiladi. Arxitektura yechimlari qo‘llangani uchun tadbirkorlarda sohaga ishtiyoq kuchaydi. Buning hisobidan Shahrisabzning o‘zida yiliga qo‘shimcha 500 milliard so‘m tushum kutilyapti, 5 mingga yangi doimiy ish o‘rni paydo bo‘lyapti.

Shu maqsadda Shahrisabz aeroportida fuqaro aviatsiyasi yo‘lga qo‘yladi. 1-yanvardan boshlab, u yerdan Samarqand, Buxoro, Xorazm va vodiylariga mahalliy reyسلar ko‘paytiriladi. Toshkent — Qarshi yo‘nalishida aviareyslار haftasiga 2-martadan 7-martaga oshiriladi. Natijada aviachiptalar narxi 2 barobar arzonlashishi, xorijiy va mahalliy sayyohlar 3 barobar ko‘payishi mo‘ljallangan.

Shuningdek, viloyatga avtotransportda kelishni qulaylashtirish maqsadida “Taxtaqoracha” dovondan o‘tish talablari yengillashtiriladi. Kelgusi yilda dovonda yangi tunnel va yo‘l qurish loyihasi boshlanadi. Samarqand bilan Shahrisabzni bog‘lovchi 30 kilometr yo‘l hamda G‘uzor — Buxoro yo‘lining 100 kilometr qismi ta‘mirlanadi.

Umuman, kelgusi yilda xorijiy sayyohlarni 500 mingtaga yetkazish vazifasi qo‘yildi.

Qishloq xo‘jaligida ham salohiyat katta. Qashqadaryo respublikada eng ko‘p don va paxta yetkazib beradi. Lekin viloyatda ish o‘rmini ko‘p yaratadigan mato to‘qish 30 foizdan oshmaydi, matoni bo‘yash yo‘lga qo‘yilmagan. Vaholanki, buning hisobidan qo‘shimcha 60 ming yoshlar va ayollarni band qilib, 500 milliard so‘m tushumni ta‘minlash mumkin.

Shu bois, kelgusi yilda viloyatda 370 million dollarlik 33 ta yirik loyiha ishga tushiriladi. Bu orqali tayyor trikotaj mahsulot ishlab chiqarish 1,6 barobar, mato ishlab chiqarish 3,1 barobar oshib, 8 mingga ish o‘rni yaratiladi.

Viloyatda To‘qimachilik texnoparkini tashkil qilish va u yerga Yevropaning tanliq brendlarini olib kelish zarurligi qayd etildi.

Viloyatda 1,4 million gektar yaylov bor. Bu — 7 million bosh qoramol va qo‘y-echki uchun tabiiy ozuqa bazasi. Lekin Mirishkor, Muborak va Nishonda 20 foiz yaylov degradatsiyaga uchragan, yana 25 foizida maysa yo‘q.

Shu bois, kelgusi yilda 100 ming gektar yaylovni yashil ekinlar bilan qoplash dasturi amalga oshirilishi aytiladi. Bunda qurg‘ochilik, issiq va cho‘llanishga qarshi urug‘chilik xo‘jaliklari tashkil qilinadi, meva-sabzavot va dorivor o‘simliklar ekiladi, daraxtzorlar barpo qilinadi, suv tejovchi texnologiyalar joriy etiladi. Quyosh energiyasida ishlaydigan nasoslar o‘rnatilib, yomg‘irlatib sug‘orish pilot loyihasi ishga tushiriladi.

Bundan tashqari, Chorva mollari genetik tadqiqot laboratoriyasi tashkil qilinib, Ispaniyaning “Assaf” qo‘ylaridan yangi milliy zotlar ko‘paytiriladi. Mutasaddilarga 1,4 million gektar yaylovning elektron xaritasini yaratish va 100 ming aholini band qilish bo‘yicha topshiriqlar berildi.

Prezident ekinlarni suv bilan ta‘minlash masalasi yildan-yilga qiyinlashib borayotganiga to‘xtaldi. Bu muammo Qashqadaryo uchun ayniqsa dolzarb. Lekin suv tejovchi texnologiyalar 515 ming gektardan atigi 16 foizida joriy qilinagan.

Shu bois, viloyatga 15 ta lazerli tekislash texnikasi olib kelinib, suv ta‘minoti og‘ir Koson, Mirish-

kor, Kasbi va Nishonda dehqonlarga arzon va sifatli xizmat ko‘rsatish yo‘lga qo‘yladi.

Sug‘orish tarmog‘ini bosqichma-bosqich yopiq tizimga o‘tkazib, 30 foiz suvni tejash mumkinligi ko‘rsatib o‘tiladi. Mutasaddilarga kanallarni betonlash, qo‘shimcha nasos va texnika olish, “Paxtaobod” kanalini modernizatsiya qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

Yoshlar bilan ishlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Viloyatda elektrotexnika, oziq-ovqat va qurilish materiallari kabi sohalar uchun kadrlar tayyorlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmagani ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan, Qarshi shahridan tashqari boshqa birovta tumanda IT markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan. Vaholanki, 60 ta kollejning bo‘sh turgan maydonlarida ham ishlab chiqarish, ham amaliy ta‘limni yo‘lga qo‘ysa bo‘ladi.

Prezident kitoblik tadbirkorning IT klaster va universitet ochish tashabbusini ma‘qulladi.

Viloyat va tuman hokimlariga har bir tumandagi ish beruvchilarning o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarga ehtiyojini aniqlash, ta‘lim muassasalarida ish beruvchilarning amaliy ustaxonasi va sexlarini ochish topshirildi. Bu ishlariga 30 milliard so‘m ajratiladi.

Voha aholisining 42 foizida ortiqcha vazn muammosi sabab yurak-qon tomir va qandli diabet kasalligi ko‘payigan qayd etildi. Prezident bu holatdan tashvish bildirib, sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotini kuchaytirish va viloyatda sog‘liqni saqlash tizimi salohiyatini oshirish zarurligini ta‘kidladi.

Shuningdek, rossiyalik hamkorlar bilan Kitobda zamonaviy kardiologiya markazi barpo etiladi. Mobil poliklinikalar xizmati yo‘lga qo‘yiladi, viloyat ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi negizida 600 o‘rinli zamonaviy klinika tashkil qilinadi.

Qashqadaryo viloyati hokimi M.Azimov kelgusi yilda 1 milliard dollar investitsiya olib kelib, sanoatda 40 trillion so‘m mahsulot ishlab chiqarish, 500 million dollar eksportni amalga oshirib, 200 million dollar importni qisqartirish, 500 ming xorijiy sayyoh jalb qilib, 550 ming aholi bandligini ta‘minlash bo‘yicha rejalarni ma‘lum qildi.

Yig‘ilishda ko‘tarilgan har bir masala bo‘yicha vazirlar va hokimlar tengma-teng hisobot berdi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Qashqadaryo viloyatiga tashrifi yakunlandi.

**Ziyodulla JONIBEKOV,
Ikrom AVVALBOYEV,
O‘za muxbirlari**

lalar, velosiped haydovchilar hamda uy hayvonlari to‘satdan chiqib qolishining oldini oladi.

Asosiy yo‘llarga ikkinchi darajali yo‘llarning qo‘shilishi ham o‘ta xavfsiz qurilgan bo‘lib, qo‘shilish joylari muayyan xavfsizlik to‘siqlaridan iborat. Asosiy yo‘ldan kelayotgan avtomashina haydovchisi ikkinchi darajali yo‘ldan asosiy yo‘lga qo‘shilayotgan avtomashina bilan qasddan to‘qnashib ketishi ehtimoli juda past. Bejiz bu yo‘llar “aqli” deb atalmagan. Mamlakatimizda ham mana shunday xavfsiz, “aqli” yo‘llarning qurilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shuningdek, texnik jihatdan nosoz avtomobillar ham harakat paytida YTH keltirib chiqaradi. Avtomobilning to‘satdan o‘chib qolishi, ogohlantiruvchi chiroqlar to‘liq ishlamasligi, tormozning zaifligi kabi holatlar ko‘ngilsiz hodisalarga sabab bo‘lmoqda.

YTHlar sonini qanday
kamaytirish mumkin?

Avvalo, yo‘l-transport hodisalarini keltirib chiqaruvchi sabablarni yanada batafsil aniqlab olishimiz kerak.

Qayd etish joizki, yo‘llarning sifatini yaxshilamay turib, bu maqsadga erishish deyarli imkonsiz. Chunki sifatli yo‘l xavfsiz harakatning asosiy omili hisoblanadi.

Shuningdek, haydovchilikka o‘qitish tizimida talabni oshirish, bo‘lajak haydovchilarga transport vositalari va yo‘llardan foydalanishda kelib chiqishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar, ularning oldini olish uchun qo‘llanadigan ehtiyot choralarini yuzasidan yetarli bilim va tushunchalarni berishimiz zarur.

Yo‘l harakati ishtirokchisi bo‘lgan piyodalar orasida ham targ‘ibot-tashviqot tadbirlarini yanada ko‘paytirish lozim. Bu borada aholiga yo‘l harakati bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalarni bepul tarqatish ham yaxshi samara berishi mumkin. Shuningdek, piyodalar yo‘laklarining yer osti yoki yer usti shakllaridan keng foydalanishni joriy etish maqsadga muvofiq.

Yo‘l belgilarning to‘g‘ri o‘rnatilishi, chorrahalarini tartibga solish bo‘yicha ham tizimli ishlar amalga oshirilishi lozim. Sababi, juda ko‘plab joylarda svetoforlarning oraliq vaqti qatnov massalarini hisobga olmagan holda belgilangan.

O‘ylaymizki, yo‘l harakati sohasida bu kabi islohotlarning kengroq bo‘lishi YTHlar sonini kamaytirib, minglab bevaqt o‘limlarning oldini oladi.

**Ne‘matjon JONUZOQOV,
huquqshunos**



TARAQQIYOT YO‘LI

INSON RESURSILARI

IQTISODIYOTNING HARAKATLANTIRUVCHI KUCHI,
FAROVONLIKNING BOSH OMILI

Otabek HASANOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi
direktorining birinchi o‘rinbosari



Boshlanishi 1-betda

Mustahkam tarixiy rishtalar, o‘xshash til, mushtarak madaniyat va ma’naviy qadriyatlar asosida shakllangan Turkiy davlatlar tashkiloti mintaqaviy hamkorlikning samarali mexanizmiga aylanmoqda.

Bugungi kunda tashkilotga a’zo davlatlarni do‘stlik va ishonchli sheriklik aloqalaridan tashqari, o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan munosabatlarni ham bog‘lab turibdi. Mamlakattarimiz dolzarb muammo va masalalarning yechimini topishda o‘zaro mos hamda yaqin qarash va yondashuvlarga amal qilib kelmoqda.

Hozirgi vaqtda dunyoda yuz berayotgan shiddatli innovatsion o‘zgarishlar, raqamlashtirish jarayonlari, sun’iy intellektning joriy etilishi tashkilotga a’zo davlatlar oldiga yangi-yangi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda. Bunday sharoit davlatlarimizning hamkorlik borasida hali ishga solinmagan ulkan imkoniyatlaridan to‘laonli foydalanishni taqozo etmoqda.

Kadrlar siyosati, inson resurslarini boshqarish va ularni rivojlantirish borasidagi hamkorlik Turkiy davlatlar tashkilotining ulkan salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish va tashkilotni mustahkamlashga

xizmat qiladigan muhim yo‘nalishlardan biridir.

Inson resurslari har qanday jamiyatning asosiy boyligi, mamlakat iqtisodiyotini harakatlantiruvchi kuch, davlat farovonligining bosh omili. Aynan inson resurslari boshqa barcha manbalardan oqilona foydalanishda hal qiluvchi va strategik rol o‘ynaydi. Shu jihatdan inson resurslarini boshqarish va rivojlantirishga bo‘lgan e’tibor dunyo miqyosida tobora ortib bormoqda.

Olamlarning tahliliga ko‘ra, keyingi besh yillikda salohiyatli professional kadrlarga bo‘lgan talab davlat fuqarolik xizmatida ham, xususiyl sektorida ham ortib boradi. Shunday ekan, har bir davlat bu sohada o‘z siyosatini doimiy yangilab borishga harakat qiladi. Sababi hozirgi kunda yangi, ya’ni raqamlashgan avlod bozorga kirib kelmoqda.

Bugun O‘zbekistonda keng ko‘lamli ma’muriy islohotlar doirasida natijador, ixcham va professional davlat boshqaruvi tizimini yaratish bo‘yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning sentabr oyida “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi qabul qilindi. Ushbu strategiyaning asosiy g‘oyalardan biri xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish hisoblanadi.

Strategiyada davlat xizmatini meritorokratiya, halollik va professionallik tamoyillari asosida tashkil etish maqsad qilib olindi. Sohani raqamlashtirishni yanada jadallashtirish, davlat tashkilotlarida inson resurslarini boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, salohiyatli kadrlar zaxirasini shakllantirish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi.

Ta’kidlash kerakki, so‘nggi yillarda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, aynan joylarda amalga oshirilmoqda. Buning uchun “mahallabay” ishlash tizimi joriy qilindi, mahallalarga



Kudaybergen Bazarbayev,
Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar
Mahkamasi huzuridagi
Davlat xizmati va mahalliy
hokimiyat ishlari bo‘yicha
agentligi direktori:

— Biz O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan joriy etilgan “mahallabay” ishlash tizimi to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘ldik. Bu ijobiy tajriba bizda katta qiziqish uyg‘otdi.

Ilgari “mahalla beshligi” samarali amal qilgan bo‘lsa, hozirgi kunda O‘zbekistonda “mahalla yettilligi”ga o‘tish belgilanibdi. Bu tizimni keng targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi bilan hamkorlik olib boramiz.



ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berildi.

Dastlabki bosqichda mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etilgan bo‘lsa, Prezidentimiz tashabbusi bilan endi mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi ham qo‘shilib, “mahalla yettilligi” joriy etilishi belgilandi. Bularning barchasi xalqchil davlat qurish, aholi muammolarini viloyat va respublika idoralariga bog‘lanib qolmasdan, joyida, tezlik bilan hal qilish maqsadida amalga oshirilmoqda. Endilikda aholining kundalik masalalari mahalla darajasida o‘z yechimini topmoqda.

Bir so‘z bilan aytganda, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Davlat xizmatchisi, eng avvalo, xalq xizmatchisi bo‘lishi shart”, degan ta’kid bosqichma-bosqich o‘zining amaliy ifodasini topmoqda.

Bunday keng ko‘lamli islohotlar, davlat boshqaruvining yangi modeli va xalqqa xizmat qilishning yangi mexanizmlari salohiyatli, sadoqatli, vijdoni pok, milliy g‘ururi baland va professional kadrlarni har qachongidan ko‘proq talab qilmoqda.

Shu maqsadda davlat xizmatiga ochiq tanlov tizimi joriy qilindi. Istiqbolli kadrlar zaxirasi shakllantirilmoqda, davlat xiz-

matchilari faoliyatini eng muhim samaradorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash yo‘lga qo‘yildi, soha raqamlashtirildi, eng asosiysi, bularni huquqiy tartibga soluvchi “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi.

Bugungi kunda O‘zbekistonda davlat xizmatini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, davlat xizmatchilarining salohiyatini tizimli ravishda oshirib borish bo‘yicha oldimizda katta vazifalar turibdi.

Salim Atay,
Turkiya Respublikasi Prezidenti
huzuridagi Inson resurslari
ofisi rahbari:

— Yig‘ilishimiz g‘oyat muvaffaqiyatli o‘tdi. Bu bilan Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi va Davlat boshqaruvi akademiyasini tabriklayman va minnatdorlik bildiraman.

Tadbir yo‘nalishi juda katta ahamiyatga ega. Chunki barcha sohalaridagi hamkorlik bevosita inson resurslariga bog‘liq. Shuning uchun Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarda inson resurslarini rivojlantirish, bu borada kuchlarimizni birlashtirish va tajriba almashishni maqsad qilib oldik.

Davlat xizmatini raqamlashtirish 2024-yildagi asosiy maqsadlarimizdan biridir.



Sadi Jafarov,
Turkiy davlatlar tashkiloti Bosh
kotihi o‘rinbosari:

— O‘zbekistonning TDTga raisligi inobatga olinib, mazkur yig‘ilishning Samarqand shahrida o‘tkazilishi katta ahamiyat kasb etadi. Turkiy davlatlar aholisining 40 foizini yoshlar tashkil qilgani tufayli ta’lim, yoshlar bilan ishlash, inson resurslarini rivojlantirish tashkilot faoliyatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Maqsad va rejalirimizni amalga oshirishda xalqaro hamkorlikning roli katta. Ayniqsa, turkiy davlatlarning kadrlar siyosati va inson resurslarini rivojlantirish borasidagi ilg‘or tajribasi ahamiyatli.

Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo va kuzatuvchi davlatlarning inson resurslarini rivojlantirishga mas’ul idora va tashkilotlari rahbarlarining Samarqandda bo‘lib o‘tgan bu galgi yig‘ini sohadagi ilg‘or tajribalarni yanada ommalashtirish uchun samarali muloqot maydoni bo‘ldi.

Uchrashuvimiz mazmun va natijalari bo‘yicha muhim ahamiyat kasb etdi. Dastlab Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo mamlakatlarning inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo‘yicha rahbarlari o‘z tajribalari yuzasidan taqdimot qildi.

Ozərbaycan Respublikasi taqdimotida kompetensiyalar modelini ishlab chiqish tajribasi o‘rtoqlashildi. Davlat xizmatiga iqtidorlarni jalb qilishda kompetensiyalar modeli asosida saralash va bu tizimning moslashuvchan bo‘lishi muhimligiga urg‘u berildi. Qirg‘iz Respublikasi mas’ul idoralari rahbarlari tomonidan inson resurslarini rivojlantirish tajribasi o‘rtoqlashildi va sohada hamkorlik olib borishning ahamiyati qayd etildi. Qozog‘iston Respublikasi vakillari tomonidan tanlov tizimi modernizatsiyasi, Prezident yosh kadrlar rezervi, milliy, tarmoq va hududiy yosh kadrlar zaxiralari to‘g‘risida ma’lumot berildi. Yosh davlat xizmatchilarini nafaqat o‘qitish va tayyorlash, balki ta’lim davomida ularning dunyoqarashi va falsafasini o‘zgartirish hamda karyerasi davomida ko‘mak berib borish muhimligi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi taqdimotida esa “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun va uning implementatsiyasi, ochiq tanlovlar tizimi, “mahalladan respublikagacha” tamoyili asosida rahbar kadrlarni tayyorlash, raqamlashtirish strategiyasi, Davlat boshqaruvi akademiyasi transformatsiyasi kabi masalalar qamrab olindi. Turkiya Respublikasi vakillari Inson resurslari ofisi tomonidan yo‘lga qo‘yilgan va turkiy davlatlarda iqtidorlarni kashf qilishga yo‘naltirilgan TALENForBIZ platformasi, yoshlar stajirovkasini tashkil qilish raqamli platformasi faoliyati yuzasidan taqdimot qildi.

Shuningdek, “Zamonaviy davlat boshqaruvi sharoitida rahbar kadrlarning salohiyatini oshirishning dolzarb masalalari” mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi. Davlat xizmati sohasida olib borilayotgan xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlarning natijalari tahlil qilindi. Yig‘ilish davomida ikki tomonlama muzokaralar ham tashkil etildi.

Ozərbaycan Respublikasi Davlat imtihon markazi bilan o‘zaro hamkorlik to‘g‘risida memorandum imzolandi.

Yig‘ilishning ikkinchi kunida mehmonlar uchun “Qo‘shimcha” mahalla fuqarolar yig‘iniga, Konigligi turizm shifoxoniga amaliy tashrif tashkil qilindi. Dastlab mehmonlarga “mahallabay” ishlash tizimining mohiyati, “Qo‘shimcha” MFY faoliyati taqdimot qilindi. “Yettilik” vakillari bilan suhbatlashgan xorijiy mehmonlar yoshlar va xotin-qizlar balansi yuritilayotganini yuqori baholadi. Ishtirokchilar uchun Samarqanddagi tarixiy obidalariga ziyorat ham tashkil etildi.

Yig‘ilish yakunlari bo‘yicha Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo davlatlar inson resurslarini rivojlantirishga mas’ul idoralari rahbarlarining III yig‘ilishini Qozog‘iston Respublikasida o‘tkazish, davlat xizmatiga nomzodlarni baholash va iqtidorlarni izlash maqsadida kompetensiyalar modelini ishlab chiqishda o‘zaro hamkorlik olib borish, davlat xizmatida ish tahlilini (“job analysis”) joriy etish yuzasidan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish xususida fikrlashildi.

Ushbu uchrashuv va unga O‘zbekiston raislik qilgani, inson resurslarini boshqarish bo‘yicha mamlakatlarni tajribasi, yutuqlari taqdimot qilining, qator hamkorlik kelishuvlariga erishilgani, qolaversa, xalqaro hamkorlikning samarali mexanizmlarini joriy etishga mustahkam zamin yaratishi bilan ahamiyatli bo‘ldi.



E‘TIROF

QAYGA BORSANG, SHU VATAN BORDIR
AMALIY TASHRIF, AMALIY KO‘MAK KO‘NGILLARGA
SURUR VA G‘URUR BERMOQDA

Nargiza RAHMATULLAYEVA,
Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi
Surxondaryo viloyat bo‘limi rahbari

“Biz delegatsiya bilan Rossiya Federatsiyasi safaridan qaytib keldik. Eng avvalo, meni quvontirgani Rossiya Davlat Dumasida bo‘lib o‘tgan uchrashuvda mezbon tarafning bizni “Marhamat”, deya o‘zbekona kalom bilan samimiy qarshi olgani bo‘ldi... “Vnukovo” xalqaro aeroportida o‘zbek tilidagi “Moskva — Toshkent” yo‘nalishi bo‘yicha yo‘lovchilarni 27-yo‘lakdan o‘tishlarini so‘raymiz”, degan lutf ham kayfiyatimizga ijobiy ta’sir etdi. Ona tilimiz quyoshga o‘xshaydi, nuri qay yerga, qay dilga yetib borsa, o‘sha yerni yoritadi, taft beradi...”.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Yoshlar siyosati departamenti rahbari Qahramon Quronboyev boshchiligidagi komissiya a’zolari 9-20-oktabr kunlari Rossiyada bo‘lib qaytdi. Jarayonlarni ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzata turib, komissiya a’zosi, Respublika

Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari Minhojiddin Mirzoning ijtimoiy tarmoqda havola etilgan yuqoridagi fikrini o‘qib, qalbim quvonchga to‘ldi.

Jarayonlarni OAV orqali kuzatib turgan kishi “Nima qilibdi, borsa boribdi-da”, deyishi mumkin. Biroq delegatsiya a’zolari 10 kundan ortiq vaqt davomida vatandoshlarimiz holidan shunchaki xabar olib, gaplashib, uchrashuv va tadbirlar o‘tkazib qaytmadi. Bu ishlar rasmiyatchilik, hisobotlar uchun qilinmadi. Amaliy tashrifning muhim jihati natija, samara beradigan, yurt sog‘inchi bilan yashayotgan qadrdonlarimizga Prezidentimizning salomini yetkazish, ko‘ngliga quvonch, shodlik ulashish edi.

Jarayonlarni kuzata turib, shuni aytishim kerakki, Vatandan yiroqda yurt sog‘inchi hamma narsadan ustunlik qiladi. Buni safga chiqqanlar yaxshi biladi. Bunday vaziyatlarda tanishi tugul, notanish yurt-doshini ko‘rib qolsa ham shu daqiqalar tom ma’noda xursandchilikka aylanadi. Ayniqsa, ortingizdan Prezident salomini olib, katta bir delegatsiya borsa, holidan xabar olib, muammolarga yechim izlasa, ko‘ngillar osmon qadar yuksaladi.

Ha, bu har bir vatandoshimizning ko‘nglida bayram degani.

Komissiya a’zolari Rossiya Federatsiyasining bir qator hududlarida bo‘lib, u yerda tahsil olayotgan, mehnat qilayotgan o‘zbekistonliklarga yaratilgan sharoitlar bilan tanishib, yoshlarimizning muammolari va takliflari yuzasidan muloqot olib bordi. Yurtdoshlarimizning mehnat huquqlarini rasmiylashtirish yuzasidan sayyor qabul o‘tkazilib, ular uchun madaniy tadbirlar tashkil etildi.

Tashrif davomida komissiya a’zolari Sankt-Peterburg shahrida ham bo‘lib, hududdagi qurilish obyektlarida mehnat qilayotgan 900 nafar vatandoshimiz bilan uchrashdi. Ular bilan o‘tkazilgan muloqot davomida ta’lim to‘lov-kontrakti, uy-joy, O‘zbekistonda ishga joylashish, tadbirkorlik uchun kredit, qaytish uchun aviachipta olish kabi 85 ta masalaning 67 tasi bo‘yicha mahalliy hokimiyatlar bilan bog‘lanilib, uchrashuv joyida hal etilgani quvonarli hol.

Amalga oshirilgan ushbu tadbirlar doirasida fuqarolarimizning ish va yashash sharoitlari o‘rganildi, ularning talab va takliflari inobatga olinib, mavjud muammolar yechimi yuzasidan ish beruvchi korxonalar

vakillari bilan muzokara o‘tkazildi. Shuningdek, o‘zbekistonlik mehnat migrantlarining vatanga qaytishi, o‘z yashash hududiga ishga joylashishi kabi aksariyat muammolari joyida bartaraf etilib, ma’lum vaqt, atrofiyicha o‘rganishni taqozo etadigan ayrim murojaatlarni hal etish bo‘yicha mutasaddi rahbarlarga tegishli topshiriqlar berildi.

Respublika ishchi guruhi Moskva shahriga borib, u yerda Butunrossiya davlat kinematografiya universitetida o‘qiyotgan o‘zbekistonlik talabalar bilan uchrashdi. Mehmonlar sharafiga uyushtirilgan konsert dasturida har ikki xalq madaniyatlarini namoyish etildi, o‘zbek talabalarining chiqishlari va o‘zbekona milliy kuy-qoshiqlar, jumladan, “Andijon polkasi” yangradi.

Shundan so‘ng ishchi guruh Rossiya Federatsiyasi Davlat Dumasini binosiga tashrif buyurdi va bir qator deputatlar bilan uchrashdi. Muzokaralar chog‘ida har ikki tomon kelgusida o‘zaro madaniy aloqalarni yanada rivojlantirishga kelishib oldi.

Tashrif jarayonlarini ijtimoiy tarmoqlar orqali kuzata turib, ishchi guruh tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan tayyorlangan videolavhalarini tomosha qildik. Bizni ta’sirlantirgani muhojirlarda qiyalangan vatandoshlarimizning muammolariga yechim topayotgan jarayonlarda minnatdorlik bildirgani, bu quvonch ularning nigohida aks etgani bo‘ldi. Ikki-uch daqiqalik videotasvirda xalqimizning bag‘rikengligi, mehribonligi, og‘ir sharoitda qiynalganlarga hamisha mehri-saxovat ko‘rsatib kelishi oliy qadriyatlarimizdan ekani aks etgan.

Rossiyadagi vatandoshlarimiz mamlakatimizda inson qadri, fuqarolarimizning

farovon yashashi uchun olib borilayotgan siyosatni yurtimizdan olisda bo‘lsa ham sezayotganini alohida ta’kidlab, buning uchun davlatimiz rahbariga o‘z minnatdorliklarini bildirdi. Shu o‘rinda shoirning she’riy satrlari beixtiyor yodga tushadi:

Onang kabi g‘amxo‘r mehribon,
Qayga borsang, shu Vatan bordir.

Mehri-saxovat ko‘rsatish xalqimizga xos xususiyat. Bu kabi xayrli ishlar an’ana va qadriyatlarimizning bardavom bo‘lishiga, pirovardida esa xalqimizning hayotidan rozi, baxtiyor bo‘lib yashashida muhim o‘rin tutadi.

Xulosa o‘rinda aytish kerakki, Prezidentimiz tomonidan xalqimizning erkin va farovon yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha xohish-irodasini ro‘yobga chiqarish, har bir fuqaroga o‘z salohiyatini rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, sog‘lom, bilimli va ma’naviy barkamol avlodni tarbiyalash muhim ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Ayniqsa, ma’naviy-atloxiy qadriyatlarimizni davr talablariga mos ravishda boyitish va rivojlantirish, shu orqali jamiyatning madaniy va ma’rifiy yuksalishiga erishish kabi bir qator vazifalarga asosiy e’tibor qaratishimiz dardkor.

Bu esa jamiyatning ongi va tafakkurini, hayot falsafasi va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi, yoshlarning intellektual salohiyati va dunyoqarashini yuksaltirish, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat, sadoqat tuyg‘usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Delegatsiya a’zolarining Rossiyaga qilgan tashrif zaminida aynan shu maqsad yotgani bilan ham ahamiyatli.



MAKTABGACHA TA'LIM

ALOHIDA YONDASHUV
VA E'TIBORhar bir bola kamolotida
muhim o‘rin tutadi

Amudaryo tumanining Jumurtov shaharchasida yakka tadbirkor Sanobar Safarboyeva tashkil etgan oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat boshlaganiga ikki yil bo'ldi. Hududda yashovchi 25 bolajonni bag'riga olgan, atrofi mevali, manzarali daraxtlar va anvoiy gullar bilan o'ralgan bu xushmanzara va bahavo maskan kichkintoylarga ma'qul va manzur.



Asli o'zi bolajon, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi yo'nalishi bo'yicha imtiyozli diplom sohibasi Sanobar Safarboyeva uzoq yillar bolalari tarbiyasi bilan shug'ullandi. Besh qizni o'qitib, voyaga yetkazdi, ikkisini uyli-joyli qilgach, sevgan sohasi bo'yicha ishlashni istadi. Aksiga olib, u yashaydigan shaharchada bog'cha umuman yo'q edi. Shu bois, oila a'zolari bilan kengashgach, o'zlarining bo'sh turgan sakkiz xonali turar joyida oilaviy maktabgacha ta'lim tashkiloti ochishga qaror qildi. Bolalar har kuni bu maskanga talpinib, intiqib keladi. Sanobar Safarboyeva bog'cha faoliyatini yo'lga qo'yish orqali 4 nafar yoshni ish bilan ta'minladi.

— Bog'chamiz hovlisi keng. Bolalar maydonchasi, yashil hudud, oshxona, dam olish va ovqatlanish xonalari, yotoqxona, mashg'ulotlar xonalari bor, — deydi mudira. — Ertalabki chin-qish mashg'ulotlaridan so'ng nonushta beriladi. Dasturxonaga tomorqamizda yetishtirilgan sabzavotlardan tayyorlanadigan xushta'm tomlar, shuningdek,

va rahbarlik qilib keladi. Tarbiyalanuvchilarni nomma-nom taniydigan, har biri bilan xarakteriga mos muomala qiladigan mudira ishni qat'iy tartib-intizom asosida boshqaradi.

— Bog'chamizdagi tarbiyachilar kasbiy faoliyatiga doir, shuningdek, san'at, sport bo'yicha o'tkazilayotgan tanlovlar, musobaqalarda doim faxrli o'rinlarni egallab kelmoqda, — deydi bog'cha rahbari. — Tarbiyalanuvchilar esa turli bayramlar munosabati bilan bo'ladigan sayillar, konsert dasturlarida munosib qatnashib, ko'nikmasini namoyish etmoqda. Bolalarga zamonaviy ta'lim-tarbiya berish uchun bor imkoniyatimizdan foydalanyapmiz.

Bog'chada tajribali tarbiyachilar o'g'il-qizlarning jismoniy, aqliy va ma'naviy kamol topishi, boshlang'ich ta'limga doir dastlabki tushunchalarni o'zlashtirishiga puxta zamin hozirlamoqda. Ana shunday mahoratli tarbiyachilardan biri Dilfuza Yo'ldosheva 2015-yildan beri ishlab kelmoqda. Sohaddagi faoliyatiga esa 22 yil to'ldi. O'tgan davrda murabbiy yuzlab bo-



meva-cheva qo'yiladi. Mashg'ulotlar, didaktik o'yinlarda ham bolalar bir-biridan qolishmaslikka harakat qiladi.

Oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ochilgani hududdagi ishlaydigan ayollarga juda qo'l keldi. Boisi, farzandlari bog'chada, ulardan ko'ngli to'q. Tarbiyachilar ham bolalarning yayrab o'sib-ulg'ayayotganidan, bunda o'zlarining hissassi borligidan xursand.

Amudaryo tumanida maktabgacha ta'lim tashkilotlari yildan-yilga ko'paymoqda. Hozir tumanda 52 ta davlatga tegishli, 4 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, 78 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Mana shu 134 ta bog'cha tumanda 3-7 yoshli 17 mingdan ziyod boladan 12 237 nafarini qamrab olgan. Shu bilan qamrov ko'rsatkichi 71,9 foizni tashkil qilaypti. Joriy yil yakuniga qadar tizimga tadbirkorlarni jalb qilgan holda yana 10 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti ochish orqali 250 bolani qamrab olish rejalashtirilgan. Shunda qamrov ko'rsatkichi 73,4 foizga yetadi.

Tumanning Mang'it shahrida faoliyat yuritayotgan 40-maktabgacha ta'lim tashkilotida bugun 6 guruhda 180 o'g'il-qiz tarbiyalanmoqda. Har bir guruh uchun alohida mashg'ulot, ovqatlanish va dam olish xonalari mavjud. Bolalarga 16 nafar malakali pedagog-tarbiyachi ta'lim-tarbiya bermoqda. Bog'cha ostonasidan hatlagan kishi beixtiyor o'zini bolalar dunyosiga kirib qolgandek his qiladi. Kichik supachadan joy olgan "Zumrad va Qimmat" ertagi qahramonlariy turli o'yinchoqlar, bezatilgan xonalar bolalikning beg'am, betashvish va baxtiyor damlarini eslatadi.

Mazkur muassasaga 2007-yildan beri tajribali mutaxassis Sharifa Seit-

larga tarbiyachilik qildi. Ularga qo'shilib o'ynadi, suhbatiga quloq tutib, savollariga erinmay, batafsil javob berdi. Maktabga kuzatgan kezlari o'y-xayoli ular bilan ketgandek bo'lardi. U tarbiyalagan o'g'il-qizlar hozir turli kasb egalari bo'lib, hayotda o'rinni topgan. Uchrashib qolganda ularning bolalik damlarini qo'nsab, "bog'cha opa" deya so'rashidan zavqlanadi, kasbiga mehri yana ham ortadi.

Ehtimol, shundandir, Dilfuza Yo'ldosheva namunalari tarbiyachi sifatida soha xodimlari orasida taniladi. "Yil tarbiyachisi", shuningdek, sport, san'at bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari o'rtasida o'tkazilgan sinovlarda iqtidorini namoyish etib, faxrli o'rinlarni egalladi. Aslida, tarbiyachi ishining mashaqqatini his qilmaymiz. Ba'zan oilamizdagi kichkintoylarni parvarishlashda qiy-nalغان damlarda turli muhitda, turlicha tarbiya olayotgan 25-30 bolani atrofida jipslab, ta'lim-tarbiya berish zahmatini his qilganday bo'lamiz.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi islohotlar O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida davom etmoqda. Shu asosda maktabgacha ta'limni sifat darajasiga olib chiqish, sohada xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, bolalarni bog'chaga qamrab olish darajasini oshirish bo'yicha tizimli ishlar qilinmoqda. Chunki maktabgacha ta'lim uzluksiz o'qitish tizimining birlamchi bog'ini bo'lib, sog'lom va barkamol bolani tarbiyalash hamda maktabga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
"Yangi O'zbekiston"
muxbiri



HAMKORLIKA — 30 YIL

O‘ZBEKISTON — UNESCO:
MA’RIFIY DUNYO VA MADANIY YUKSALISH SARI
DADIL INTILISHLAR SARHISOBI

Oybek ABDIMO'MINOV,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

 Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda 193 mamlakat UNESCO a'zosi. O'zbekiston ham 1993-yil 26-oktabr kuni mazkur tashkilot a'zoligiga qabul qilingan. 1994-yili UNESCO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi tashkil etildi, 1996-yilda Toshkentda UNESCO vakolatxonasi ish boshladi.

O'zbekiston UNESCO bilan ta'lim, fan, madaniyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, sog'liqni saqlash, ekologiya kabi masalalarda hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan. Hozirgacha mamlakatimiz tashkilotning 14 qo'mitasiga saylangan, 7 ta xalqaro huquqiy-me'yoriy hujjatiga a'zo bo'lgan. Tashkilot ko'magida O'zbekistonda 16 ta turli ijtimoiy-siyosiy, madaniy markazlar tashkil etildi.

Ta'lim sohasidagi hamkorlik
tarixi va istiqbollari

Ta'lim sohasi O'zbekiston va UNESCO hamkorligining muhim yo'nalishlaridan biridir.

BMT va UNESCO tomonidan "Ta'lim barcha uchun", "Savodxonlikning o'n yilligi", "Barqaror taraqqiyot ta'limining o'n yilligi" kabi dasturlar qabul qilingan. O'zbekiston ham mazkur dasturlarni amalga oshirishning faol tashabbuskori bo'ldi.

Tashkilot O'zbekiston bilan uzluksiz ta'limni rivojlantirishning barcha yo'nalishlari va bosqichlarida hamkorlik qilib keladi. 1996-yildan buyon mamlakatimizdagi 46 o'quv muassasasi, 41 umumta'lim maktabi va 5 ta kasb-hunar kolleji hamda akademik litseyi UNESCOning Birlashgan maktablar tarmog'iga a'zo sifatida faoliyat yuritmoqda.

Birlashgan maktablar tarmog'i dasturining asosiy maqsadi xalqaro hamjihatlik, tinchlik, madaniyatlararo muloqot hamda barqaror taraqqiyot, demokratiya, bag'rikenglik kabi g'oyalarni targ'ib etish va ta'lim sifatini oshirishga ko'maklashishdir. Ushbu tarmoq doirasida O'zbekiston maktablari UNESCOning "Patrimonto", "Mon-dialogo" kabi dasturlarida qatnashib keladi.

UNESCO O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishda, talabalar va ilmiy mutaxassis kadrlar, professor-o'qituvchilar bilan ilm-fan sohasida akademik tajriba almashishda yaqindan hamkorlik qilmoqda. Uning ko'magida ilmiy tadqiqot ishlari yuzasidan o'zbekistonlik talabalar va ilmiy kadrlar xalqaro stipendiyalar sohibi bo'ldi. Shuningdek, O'zbekistonning bir qator oliy ta'lim muassasalarida UNESCO kafedralari tashkil etildi. Bu kafedralar inson huquqlari, tinch-



lik madaniyati, bag'rikenglikni qaror top-tirish, tarixiy obidalarini saqlash va targ'ib etish, fuqarolik hamda qadriyatlar ta'limini yuksaltirish, jahon dinlarini qiyosiy tadqiq etish va ularga hurmat ruhini shakllantirish, an'anaviy xalq tibbiyotini o'rganish, ekologik madaniyat, san'at boshqaruvi, iqtisodiy bilimlarni yuksaltirish kabi sohalarida faoliyat yuritmoqda.

UNESCO bilan hamkorlikda "Inson va biosfera", "Xalqaro gidrologiya", "Ijtimoiy islohotlar boshqaruvi", "Bioetika" kabi dasturlar qabul qilingan. Xususan, "Inson va biosfera" dasturi bo'yicha biosfera qo'riqxonalarining jahon tarmog'i tashkil etilgan. Ushbu tarmoqqa O'zbekistonning Cho'tqol davlat biosfera qo'riqxonasi kiritilgan. "Xalqaro gidrologiya" dasturi doirasida o'zbekistonlik yetakchi olimlar va tadqiqotchilar suv muammolari bo'yicha yirik izlanishlarni amalga oshirmoqda.

O'zbekiston 2001-yilda BMTning suvli-botqoq yerlar to'g'risidagi Ramsar konvensiyasiga qo'shilgan. Mazkur konvensiya doirasida 1999-yili Buxoro viloyati Dengizko'l havzasi, 2008-yili Jizzax va Navoiy viloyatlaridagi Aydar-Amasoy ko'llar tizimi xalqaro ahamiyatga ega suvli-botqoq yerlar ro'yxatiga kiritildi va muhofazaga olindi.

Turli yillarda o'zbekistonlik olim va tadqiqotchilar tashkilotning xalqaro ilmiy va o'quv grantlarini qo'lga kiritgan. Jumladan, 3 nafar tadqiqotchi UNESCOning "Ipak yo'li" nomli Xirayama granti (Yaponiya), 2 tadqiqotchi Obuchi granti (Yaponiya), 8 olimimiz Buyuk devor (Xitoy), 2 tadqiqotchi MASHAV (Isroil), 1 nafari Chexiya granti, 4 nafari KBS



grant (Koreya), 1 nafari tashkilotning ustuvor yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash granti sohibi bo'lgan.

Olimlar ayollarni ham UNESCOning "Tabiiy fanlarda olimlar ayollar" nomli L'Oreal qo'shma grantini qo'lga kiritdi.

Milliy madaniyat va tarixiy
merosni xalqaro targ'ib qilish

O'zbekiston boy qadimiy madaniyat, milliy qadriyatlar va tarixiy merosga ega bo'lgan zamin. Madaniy va tarixiy yodgorliklarini muhofaza qilishning milliy qonunchilik tizimi ham yaratilib, xalqaro huquqiy normalarga qo'shilish tadbirlari amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston 1993-yili UNESCOning "Umumjahon madaniy va tabiiy meroslarini muhofaza qilish to'g'risida"gi, 1996-yili "Qurolli mojarolar chiqqan holda madaniy boyliklarni himoya qilish to'g'risida"gi, 1997-yili "Madaniy meros boyliklarini noqonuniy olib kirish va chiqish, ularga egalik qilish huquqini o'zgalarga topshirishni taqiqlash to'g'risida"gi konvensiyalarini ratifikatsiya qildi.

“

2017-yili "Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, an'anaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi atlas va adraslarni himoya qilish", 2019-yili Xorazm raqsi — "Lazgi", 2020-yili Miniatur san'ati, 2021-yili Baxshichilik san'ati, 2022-yili O'zbekiston ipagi, ipakchilik va Xo'ja Nasriddin afandining latifalarini aytish an'ansi UNESCOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritildi.

2200 va Marg'ilon shahriining 2000 yilligi keng nishonlandi. "Alpomish" dostonining 1000 yilligi, "Avesto" kitobining 2700 yilligi va Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yillik yubiley sanalariga bag'ishlab tadbirlar

bo'lgan madaniy aloqalarni qayta tiklash, ta'lim tizimi sifatini oshirish va barkamol avlodni tarbiyalash, O'zbekistonda yoshlarning mehnat ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha qator muhim dastur va loyihalar samarali amalga oshirib kelinmoqda".

UNESCO hamkorligida O'zbekiston tarixi va madaniyatini chuqurroq targ'ib etish va xalqaro miqyosda yanada kengroq tanishtirish maqsadida yildan-yilga yangi yo'nalishdagi loyihalar amalga oshirilmoqda. "Ipak va ziravorlar", "Atlas bayrami", Xalqaro maqom, Baxshichilik, Hunarmandchilik, Lazgi festivallari kabi tadbirlar har yili an'anaviy ravishda UNESCO hamkorligida tashkil etilmoqda.

2017-yili "Marg'ilon hunarmandchilikni rivojlantirish markazi, an'anaviy texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi atlas va adraslarni himoya qilish", 2019-yili Xorazm raqsi — "Lazgi", 2020-yili Miniatur san'ati, 2021-yili Baxshichilik san'ati, 2022-yili O'zbekiston ipagi, ipakchilik va Xo'ja Nasriddin afandining latifalarini aytish an'ansi UNESCOning nomoddiy madaniy meros ro'yxatiga kiritildi.

O'zbekiston 2021-yilda Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish xalqaro qo'mitasining a'zosi etib saylandi. Mamlakatimizda tarixiy meros obyektlarini himoya qilish masalalari bo'yicha xalqaro maslahat qo'mitasi faoliyati va Mintaqaviy gumanitar hamkorlik bo'yicha "Xiva jarayoni" tizimi tashkil etildi.

2019-yili Xiva shahrida "Markaziy Osiyo — jahon sivilizatsiyalari chorrahasida" xalqaro madaniyat forumi, 2020-yili "Yoshlar — 2020: global miqyosdagi birdamlik, barqaror taraqqiyot va inson huquqlari" mavzusida inson huquqlari bo'yicha Samarqand forumi, 2022-yili Toshkentda Kichik yoshdagi bolalarga tarbiya va ta'lim berish bo'yicha Butunjahon konferensiyasi UNESCO hamkorligida bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish maqsadlarida belgilangan ko'rsatkichlarga erishish doirasida UNESCO bilan samarali hamkorlik olib bormoqda. Shundan kelib chiqqan holda, 2022-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga uyg'un bo'lgan ta'lim bo'yicha barcha sa'y-harakatlarini tizimli muvofiqlashtirish maqsadida Toshkentda UNESCOning mintaqaviy markazini, jahonda to'plangan ilg'or tajribalar, zamonaviy interaktiv o'qitish uslublari, amaliy bilim va ko'nikmalarni ham o'zaro almashish maqsadida Tarbiyachilar xalqaro hamjamiyatini tashkil etish tashabbuslari ilgari surildi.

O'zbekistonning yetakchi oliy ta'lim muassasalarida "Dunyoni dinlarni qiyoslama tadqiq etish", "Suv diplomatiyasi, suv resurslarini boshqarish va atrof-muhit muhofazasi", "Madaniyat turizmi" kabi kafedralar ochilmoqda. 2023-yili O'zbekiston Milliy arxividan o'rin olgan "Buxoro amirligi Qushbegi mahkamasining arxiv fondi" va Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutidagi "Mavlono Jaloliddin Rumiy asarlari" UNESCOning "Jahon xotirasi" dasturiga kiritildi. 2023-yili UNESCO Butunjahon merosi qo'mitasining 45-sessiyasida "Ipak yo'li: Zarafshon-Qoraoqum" yo'lagi jahon merosi ro'yxatiga kiritildi. Shuningdek, 2023-yili ulug' alloma Abu Rayhon Beruniyning 1050 yilligi UNESCO qarorgohida xalqaro miqyosida nishonlandi.

O'zbekiston UNESCO bilan hamkorlikning 30 yili mobaynida madaniyat va tarixiy merosni saqlash borasida keng qamrovli hamkorlik munosabatlarini yo'lga qo'ydi va rivojlantirdi. O'zbekistondagi ko'plab yodgorliklar, qadimiy moddiy va nomoddiy an'analari UNESCO ro'yxatlariga kiritildi va xalqaro muhofazaga olindi. Bu tadbirlar milliy qadriyatlar va an'analarni saqlab qolish bilan birgalikda O'zbekiston uchun jahon hamjamiyatiga yanada chuqurroq kirib borish va yangidan-yangi istiqbollarni ochishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu borada O'zbekistonda bir qator tarixiy-madaniy yodgorliklar, nomoddiy madaniy meros obidalarini UNESCO ro'yxatiga kiritish, qadimiy shahar va tarixiy shaxslarning yubiley sanalarini xalqaro nishonlash, yetakchi oliy o'quv yurtlarida UNESCO kafedralarini ochish kabi masalalar ham mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish O'zbekiston va tashkilot hamkorligini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa jahon xalqlarining O'zbekiston madaniyatiga qiziqishini oshirib boraveradi.

Munosabatlarning
yangi bosqichi

Yangi O'zbekiston sharoitida UNESCO bilan o'zaro hamkorlik aloqalari yangi bosqichga ko'tarilib, yanada rivojlanib bormoqda.

2018-yil 8-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev UNESCO bosh qarorgohida bo'lib, tashkilot Bosh direktori Odri Azule xonim bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuv asosida O'zbekiston bilan UNESCO aloqalarini yanada rivojlantirishga mo'ljallangan hamkorlik dasturi imzolandi. O'z navbatida, 2019 va 2022-yillarda UNESCO Bosh direktori Odri Azule O'zbekistonga tashrif buyurdi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "So'nggi yillarda UNESCO bilan ta'lim, fan, madaniy meros, axborot va kommunikatsiya sohalarida hamkorligimiz jadal rivojlanib bormoqda. Jumladan, mazkur tashkilot ko'magida yurtimizdagi butunjahon madaniy meros obyektlarini asrab-avaylash, qadimiy Buyuk ipak yo'lida mavjud



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news

MODDIY EMAS, MA'NAVIY-RUHIY BOYLIK USTUVORLIGI

**Fozil SULTONOV,
mehnat faxriysi**

Ma'naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli yo'nalishiki, bu borada xo'jako'rsinga ish qilish turli jabhalarda kutilmagan murakkabliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayni paytda yangi O'zbekistonni barpo etishda barcha sohalarida yangicha tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ma'naviyat sohasidagi o'zgarishlar esa ushbu tashabbuslarga qanot bo'lishi shubhasiz. Butun dunyoda g'oyalar kurashi, axborot xuruji, raqobat va mafkuralar olishuvi kuzatilmoqda. Globallashuv jarayonlarida milliy qadriyatlarni asramoq, milliy ma'naviyatimiz barhayotligini ta'minlash esa eng muhim vazifadir.



MULOHAZA

Beijz bu fikrni sarlavhaga olib chiqmadik. "Inson qadri, insonni rozi qilish" g'oyalarining hayotga tatbiq etilishidagi ba'zi mulohazalarga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. Nazarimizda, bugun biz mana shu oddiy mantiqning mag'zini chaga olmayapmiz. Avvalambor, inson qadri nima bilan o'lchanishiga — uning moddiy boyligi bilanmi yoki ma'naviy-ruhiy boyligi bilan, shuning mohiyatini anglashimiz zarur.

Ayni masalada ayrim ommaviy axborot vositalari, hatto ziyolilar qarashlarida ham anglashilmovchilik bo'lyapti, nazarimizda. Go'yoki insonning iqtisodiy ahvolini o'nglasak, uning qadri ham oshib borayotgandek. Vaholanki, ba'zi aholi qattamlari, ayniqsa, yoshlari-miz orasida "yuqori martabali boy" kishilar haqida ularning ma'naviy dunyosi qandayligidan qat'i nazar, "qadri baland" degan tushuncha paydo bo'lmoqda.

Ijtimoiy tarmoq va ba'zi xususiy telekanallarda shunday iboralar ishlatiladiki, hatto ay-tishga istihola qilasiz. Axir, har qanday so'z oldin fikr ko'rinishida shakllanib, undan so'ng tili orqali ommaga yetadi. Xo'sh, "Inson qadri-ni ko'tarishda OAV qanday o'rinni egallaydi, uning ahamiyati qanday?" degan tabiiy savol tug'iladi.

Fikrimizcha, asosiy maqsadimiz — fuqarolik jamiyatini qurish va bu jamiyatda inson qadri-ni yuqoriga ko'tarish ekan, uni amalga oshirish vositasi sifatida OAVning ahamiyati va o'rni juda yuqori bo'lishi lozim. Afsuski, hozirgi paytda bu muammo bo'lib turibdi, chunki yuqorida aytganidek, ko'proq iqtisodiy masalalarga e'tiborni qaratib, insonning ma'naviy-ruhiy qiyofasini shakllantirish oqsamoqda.

Bunga OAV orqali tarqatilyotgan materiallar yaqqol misol bo'la oladi. Shu ma'noda, diqqatingizni Prezidentimizning kuyunchaklik bilan ma'naviy-ma'rifiy ishlarimizga e'tibor qaratish lozimligini ta'kidlagan iqtiboslariga qaratmoqchiman: "Moddiy va ma'naviy hayot-ni uyg'un rivojlantirishimiz kerak... Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoddan izlaydi. Shunga yo'l bermasligimiz kerak".

Afsuski, ayrim mutasaddi tashkilotlarimiz ushbu muammoga yuzaki qarab, targ'ibotchilikda faqat har xil tadbirlar, festivallar o'tkazish bilan ovora bo'lib qolmoqda. Ijtimoiy-ma'naviy sohada chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borilmay, tadbirlarni o'tkazish ssenariylarining balandparvozligiga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Beijz "Ta'limda tanaffus bo'lishi mumkin, tarbiyada bo'lmaydi", deyishmagan. Bu hikmatning mohiyatida chuqur falsafa yashiringan. Birinchi bo'lib ona o'z farzandiga so'zlari orqali — bolaning ongini, dunyoqarashini shakllantir-

Mamlakatimiz islohotlar maydoniga aylandi. Dunyoning rivojlangan davlatlari darajasiga yetish, taraqqiyotning yuqori pog'onasiga chiqish yuzasidan barcha sohalarida o'zgarishlar kechmoqda. Yurtdoshlarimizning dunyoqarash, fikrlash tarzi o'zgariyapti.

"Har bir kun — bu imkoniyat, har bir kun — bu kelajak uchun poydevor", degan hayotiy shiorniing mohiyati va ahamiyatini ochib berish vazifasi ham ma'naviyatchilar oldidagi dolzarb masaladir. Bu mohiyatan vaqtidan unumli foydalanishni anglatadi. Ma'lumki, iqtisodiy



radi. Ona va ota tarbiyada o'z tiliga qanchalik bee'tibor bo'lsa, kelajakda bola betamiz bo'lib voyaga yetadi. Keyinchalik "oynadan o'pkalab" yurmaslik uchun ham farzandlarimiz ma'naviy dunyosini boyitishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Mustaqillik va inson huquqlari, inson qadri tushunchalari o'rnatida chambarchas bog'liqlik bor. Inson mustaqil bo'lsagina, erkin bo'ladi va u o'z huquqlarini taniydi, uning uchun kurasha oladi, o'z qadri-ni anglab yetadi. Bu fuqarolik jamiyatining asosiy g'oyasidir. Fuqarolik jamiyatida inson o'z ichki ma'naviy-ruhiy dunyosiga loqayd bo'lmisligi lozim. Unutmaylik: insoniyatni jar yoqasiga yetaklab, mudhishlik girdobiga tashlaydigan illatlardan biri loqaydlik. Chunki loqaydlik mutellikning onasidir. Mutellikdan qo'rqqulik dunyoga keladi. Qo'rqqulikdan esa xiyonat tug'iladi. Xiyonatdan dushmanlik, uning oqibatida urush paydo bo'ladi.

vazifalar Davlat dasturida belgilangan bo'lib, ularni sifatlil amalga oshirishda o'z sohasi-niing bilimlil egalari tinmasdan mehnat qilmoqda. Ammo bu g'oyaning ma'naviy-ma'rifiy uyg'unligini ta'minlashda OAV va ziyolilarimiz zimmasida katta mas'uliyat turibdi. Axborot mahsulotlarini uzluksiz monitoring va ilmiy tahlil qilishni ta'minlash bu boradagi ishlarning eng asosiy si sanaladi.

Bizning asrimizda jamiyatimizda har bir qabul qiluvchi shaxs axborotni ongli ravishda saralashga, qiyoslashga, oqini oqqa, qorasini qoraga ajratishga o'rganishi shart. Demak, mustaqilligimizni mustahkamlash, ichki va tashqi siyosatni yuritish, milliy manfaatlarimiz-ni ta'minlash yo'lida davlatimizning xalqaro axborot makonida o'z o'rniga ega bo'lishi OAV a'zolari va ziyolilarimizga ulkan mas'uliyat yuklaydi.



XORIJDAGI VATANDOSH

KANADADA 16 KLINIKA OCHGAN, o'zbek shifokor ayoli

HAMISHA VATAN XIZMATIGA TAYYOR

Dunyoning turli nuqtalarida mamlakatimiz taqdiri uchun qayg'urayotgan, yangi mazmundagi islohotlarni qo'llab-quvvatlab, yurtga daxldorlik hissi bilan yashayotgan vatandoshlarimiz ko'pligi quvonarli, albatta. Ular safida Kanadadagi "The Healthy Way Medical diagnostic Center inc.", "Advanced Cardiology Center inc.", "Bramalea Cardiology Center inc.", "The Healthy Way cardiology Centre inc." kabi klinikalar asoschisi, kardiolog shifokor Nodira Yo'ldosheva ham bor. U 1960-yili Toshkent shahrida tavallud topgan. Tashkent tibbiyot akademiyasida tahsil olgan.

Quvonarlisi, Nodira opa ko'plab vatandoshlarimiz qatori o'zini Vatani xizmati uchun mas'ul deb biladi. O'zbekiston tibbiyotining nufuzi ortishini, kadrlar salohiyati yanada yuksalishini istaydi. Bu borada o'zi ham hamkorlikka tayyor. Quyida biz taqdim etayotgan hikoyada uning ozurlari, niyatlari mujassam.

Kanadada to'rt yilda 16 ta shifoxonani ishg'a tushirdik

Turmush o'rtog'im — malakali dasturchi. 2007-yilda mutaxassisligi bo'yicha Kanadaga ishg'a taklif etishdi. Shu tariqa ushbu mamlakatga yo'l oldik.

Shifokor bo'lib ishlashim uchun ingliz tilini bilishim zarur edi. Besh oy muntazam til o'rgandim. Kanadada shifoxona ochish uchun tinmay harakat qildim. Bu yerda tibbiyot muassasasini tashkil etish oson emas. Sababi Kanada hukumati davlat byudjetining 49 foizini tibbiyotga ajratadi. Men yaxshi huquqshunos jalb qilib, O'zbekistondagi faoliyatimni Kanada hukumatiga ko'rsatdim, ko'plab suhbatlardan o'tgach, shifoxona ochishga ruxsat oldim.

2009-yil 1-aprel. Bu sana men uchun juda qadrlil va keyingi katta qadamlarimning ibtidosi bo'ldi. Nihoyat, ko'p urinishlardan so'ng ilk shifoxonamizni ochishga muvaffaq bo'ldik. Reklama va e'lonlar berdik. Asta-sekin shifoxonamizga bemorlar kela boshladi. Bora-bora shifoxona tarmog'ini kengaytirish, shifokorlarni esa turli millat vakillari ko'p yashaydigan hududlarga qarab, aynan shu millat vakillaridan tanlab olish uchun harakatlarni boshladik, tarmoq kengaya bordi. Biz mutaxassislarga ham yangilik



qilishga, ularning xotirjam ishlashi uchun sharoit yaratishga urindik. Shunday qilib, ular shifoxonalarda nafaqat mehnat qilishi, balki shu yerning o'zida malaka oshirishi, tahsil olishiga imkoniyat yaratildi. To'rt yil ichida hududlararo 16 ta shifoxona ochdik. Ular, asosan, kardiologiyaga ixtisoslashgan. Har bir bemorimizdan yaxshi fikrlar eshitamiz. Ayniqsa, tabassum bilan kutib oladigan o'zbek shifokori, deya ardoqlashadi.

Xolis niyat hamisha ro'yobini topadi

Kanadada vatandoshlarimiz ko'p. Ammo ularni birlashtiradigan yagona uyushma bo'lmagan. Vatandoshlarni bir joyga jamlash maqsadida 2021-yilda Kanadadagi Vatandoshlar uyushmasiga asos soldik. Uyushmamiz a'zolari bilan milliy bayramlarimizni birga nishonlaymiz. Ayniqsa, Mustaqillik bayramimiz o'zgacha o'tadi. Kanada madaniyat vazirligi binosining oldida yurtimiz bayrog'i hurmat bilan yuqoriga ko'tariladi. Bizning bayramlarimizda mahalliy hukumat vakillari ham bajonidil ishtirok etadi, milliy taomlarimizni sevib tanovul qiladi. Keyingi bayramlarga ham taklif etishimizni so'rashadi.

Yurtimizda bo'layotgan yangilanishlardan yaxshi xabardorman. Prezidentimiz tashabbusi bilan "Vatandoshlar" jamoat fondi tashkil etilganini eshitgandim. Uning faoliyatini ijtimoiy tarmoqlarda kuzatib borardim. Fond bilan hamkorlikni yo'lga qo'yib oldik.

lardan bo'lmish alqorlar yil sayin kamaymoqda edi.

O zimiz bilmagan holda alqor go'shtini yebmiz

Qishlog'imiz Oqtosh tog'larining etagida joylashgani uchun Chimyon cho'qqilariga tengdosh Qoraqoya kengliklari shundoqqina ko'zga tashlanib turardi. Bir gal qor ertaroq tushgan kezlar edi. Mahalliy ovchilarning: "Alqorlar paydo bo'libdi-ya", degan gaplari quloqqa chalinib qoldi. Bu xabar tezda o'tkir ko'zli g'oratchilarning quloqlariga yetib, yovvoyi qo'ylarning o'zi tugul, izlari ham quritib yuborildi. Keyinchalik ham brakonyer, ya'ni tabiat g'oratchilarini bu yo'ldan qaytarishning iloji bo'lmadi. Qarabsizki, Qoraqoya qirlari yana o'lik makonga aylandi. Surishtirib ko'rdim: "Vatanimizda alqorlar saqlanib qolgan makon bormikan o'zi?!" Izlay-izlay xushxabar eshitadim: Nurota tog'larida alqorlar muhofazaga olinibdi. Xudoga shukr, haqiqat bor ekan, chorasini topsa bo'lar ekan-ku! Vaqtini g'animat bilib, alqorlar bilan uchrashish va ularga omonlik tilash maqsadida Jizzax va Navoiy viloyatlari sari yo'lga chiqdim. Viloyatlarning rahbarlari ko'rsatmalariga asosan tabiat himoyachilari bizga hamroh bo'ldi. Afsuski, kun bo'yi alqor u yodda tursin, noyob bu jonivorlarning izlarini ham topa olmadik.

Buni qarangi, O'zbekistonga kelganimda fond vakillari meni Shavkat Mirziyoyevning Qashqadaryo viloyatidagi saylovchilar bilan o'tkazilgan saylovoldi uchrashuviga taklif etdi. Uchrashuviga AQSH, Fransiya, Portugaliya, Rossiyadan ham vatandoshlar kelgan edi. Ular bilan tanishdim, do'stlashdim, Prezidentimizga o'z fikrlarimizni, takliflarimizni ochiq, samimiy suhbatda ayta oldik.

"Xolis niyat hamisha ro'yobini topadi", deyishadi. Bu — rost gap! Necha yillardan buyon Prezidentimiz bilan ko'rishishni, suhbatlashishni, rejalarni haqida gapirib berishni va eng muhimi, davlatimiz rahbari tomonidan bu takliflarning qo'llab-quvvatlanishini orzu qilardim. Prezidentimizga O'zbekiston tibbiyotining yanada rivojiga o'z hissamni qo'shishga va'da berdirm.

Ko'p o'tmay, sentabr oyida davlatimiz rahbari bilan AQSHdagi vatandoshlar bilan uchrashuvda yana ko'rishishga musharraf bo'ldim. Juda uzoq, samimiy, rasmiyatchilikdan xoli suhbat sifatida xotiramda qoldi. Hamma o'z g'oyalarini birma-bir aytdi. Bu kunlar hayot zarvaralarimning oltin sahifalari bo'ldi, desam mubolag'a bo'lmaydi. O'sha paytda AQSHdagi xalqaro tadbirda ishtirok etish uchun kelgan Prezidentimizning vatandoshlar bilan uchrashishga vaqt ajratgani, alohida e'tibor qaratgani e'tirofga loyiq. Bundan kim ham ruhlanmaydi deysiz?! Bunday mehrdan keyin Vatanga nafim tegishi kerak, degan fikrni nega o'ylamaslik kerak?! Yer yuziga tariqdek sochilgan minglab vatandoshini yo'qlaydigan davlat qo'llab-quvvatlovini yurak-yurakdan his qilidik.

O'zbekistonning kundan-kun rivojlanib borayotgani haqida ko'p eshitaman. Xalqimiz farovon hayotda yashayotganini eshitib xursand bo'laman. O'zbekistonni ko'msayman, cog'inaman, tez-tez kelishga harakat qilaman. Yaqinda borib, qadrdonlar bilan dildan suhbatlashdik. Xalqaro darajadagi shifokorlar tayyorlashimiz kerakligi haqida fikrlar almashdik. Kelajakda o'zbekistonlik talabalarning Kanadada amaliyot o'tashi uchun sharoit yaratish, xalqaro tajriba to'plashiga ko'maklashish zarurligi haqida gaplashdik. Buning uchun ular til o'rganishini juda muhim.

Agar bu borada barchamiz birga ishlasak, O'zbekiston tibbiyot sohasida dunyoga taniladi. Bizdan ham xalqaro ekspertlar yetishib chiqadi.

**"Vatandoshlar" jamoat fondi
Axborot xizmati rahbari
Ufora HABIBULLAYEVA
yozib oldi.**



YASHIL SAYYORA

IZLARINGNI IZLAYMAN, ALQOR!

Umr oqar suv yanglig' o'taverar ekan. Ortga boqsam, saksondan ham oshib ketibman. Xohlaymizmi-yo'qmi, o'tgan umrimizni sarhisob qilishga majburiymiz. Razm solsam, ko'plab kasbdoshlarimiz, safdoshlarimiz, tengdoshlarimiz ham hayot yo'llarining eng go'zal, ibratomuz tomonlarini gapirish, ko'z-ko'z qilish, yozishni ma'qul ko'radi. Bir tomondan, bu to'g'ridir. Chunki odamlar, ayniqsa, yoshlar shunday nurlil yo'llardan ibrat olishlari kerak, nazarimda. Menga esa ortda qolgan manzillarimning og'ir taassurotli, tuzatib bo'lmaz xatolarga yo'l qo'yilgan tomonlarini yorqin voqealar orqali ko'rsatib o'tish ma'qul ko'rindi. Zero, ko'p maqtangandan ko'ra bor haqiqatni to'raligicha buyon aylash ham chuqur va ko'proq ta'sir eta olishi, aniq va tegishli xulosa chiqarishga boshlashi bir haqiqat bo'lsa kerak.



Shunday qilib, qirg' birinchi yillarda, ayni bahor chog'ida tug'ilganlardan biri — men esimni taniganimdan boshlab chertmak, rogatka(sopqon ham deyishadi biz tomonlarda) yasab olib, erta bahorda issiq o'kalardan tashrif buyuruvchi go'zal va rang-barang qushchalarni berahmlarcha bearmon qiy-ratishim bor haqiqat edi! Ba'zilarining nomlari ham yodimda: ola ayyo'ir, to'ng'icha, pashshaqoqar, qizilcha, qiy-macha... Bu kabi mitti qushchalarning vazni bir necha gramm tosh bosar, yo yo'q. Ayni bahor chog'larida dalalarga

chiqib, sog'inib, zoriqib kuzataman-izlayman-u, ulardan biron nishona uchratmayman.

Sopqonni sindirib, soyga uloqtirdim

Tabiatdagi shunday go'zalliklarga qiron keltirgan panjarlarimni...

Ha, bir voqeadan keyin... Bozorga borish va qaytish yo'lidagi Yakkatutda ovi qilayotgan edim. Shoxlar orasidagi mitti chumchuq bolasi meni ko'rib, bir barg ortiga yashiringan bo'ldi. Sopqon(rogatka)

ga dumaloq toshchani joylab, zarb bilan ursam, chumchuqchani boshi bir tomonga, tanasi ikkinchi tomonga tushsa bo'ladimi! Sevingancha borib, o'ljamga qo'l cho'zdim. Shu dam kimdir yelkamdan tutdi. Bosh ko'tarib qarasam, boshlang'ich sinflarni o'qitadigan domlamiz Nusratilla aka ekan.

Anavi sho'rlikning ahvoliga qara! — dedi o'qituvchimiz qushchani jon berayotgan boshiga ishora qilib. — Shu tirik jonniyam Alloh yaratgan-ku, olamda yashashga haqqi bor edi-ku!..

Men lol edim, jinoyat ustida qo'lga tushgan aybdor holatiga tushgandim.

— Boshqa qaytarmayman, ishoning menga, — dedim sopqonni sindirib, soyga uloqtirar ekanman.

— Ishondim senga, — dedi domlam o'z yo'lida davom etar ekan.

Yillar o'tib, tabiat va jonivorlar muhofazasi asosiy mavzularimdan bo'lib qoldi. Yovvoyi jonivorlar muhofazasi bir taraf bo'lsa, yovvoyi qo'ylar, ya'ni alqorlar himoyasi yana bir taraf. Chunki eng go'zal jonivor-

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarlari tahririyati" DUK

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlil chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadordlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 00:00

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05